UO‘K 81’42:81’25

INGLIZ VA O‘ZBEK SIYOSIY DISKURSIDA URUSH VA KURASH METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI

Tojiboyeva Mohinur Sherali qizi,
Farg‘ona davlat universiteti Ingliz tilini o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.f.d.(PhD)
mtojiboyeva95@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek siyosiy diskursida urush va kurash metaforalarining kognitiv, lingvistik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda siyosiy va ijtimoiy muammolarning qarama-qarshilik, kurash, himoya va g‘alaba kabi konseptlar orqali ifodalanishi o‘rganiladi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi metaforik birliklarning umumiy hamda farqli jihatlari, shuningdek, ularning baholash, ishontirish, legitimlashtirish va auditoriyani safarbar etishdagi vazifalari aniqlanadi. Tahlil natijalari urush va kurash metaforalari siyosiy voqelikni konseptuallashtirish bilan birga, siyosiy pozitsiyani asoslash va auditoriyaning munosabatini shakllantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *siyosiy diskurs, metafora, urush metaforasi, kurash metaforasi, konseptual metafora, kognitiv model, pragmatik funksiya, siyosiy kommunikatsiya.*

A COMPARATIVE ANALYSIS OF WAR AND STRUGGLE METAPHORS IN ENGLISH AND UZBEK POLITICAL DISCOURSE

Abstract. *This article provides a comparative analysis of war and struggle metaphors in English and Uzbek political discourse. It examines how political and social problems are conceptualized through the notions of confrontation, struggle, defence, and victory. The study identifies the common and distinctive features of metaphorical expressions in English and Uzbek and analyzes their functions in evaluation, persuasion, legitimization, and audience mobilization. The findings demonstrate that war and struggle metaphors not only conceptualize political reality but also contribute to legitimizing political positions and shaping audience attitudes.*

Keywords: *political discourse, metaphor, war metaphor, struggle metaphor, conceptual metaphor, cognitive model, pragmatic function, political communication.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ МЕТАФОР ВОЙНЫ И БОРЬБЫ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ПОЛИТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. *В статье проводится сопоставительный анализ когнитивных, языковых и прагматических особенностей метафор войны и борьбы в английском и узбекском политическом дискурсе. Исследуется концептуализация политических и социальных проблем посредством понятий противостояния, борьбы, защиты и победы. Выявляются общие и отличительные особенности метафорических единиц в английском и узбекском языках, а также анализируются их функции в оценке, убеждении, легитимации и мобилизации аудитории. Результаты исследования показывают, что метафоры войны и борьбы не только концептуализируют политическую действительность, но и способствуют обоснованию политической позиции и формированию отношения аудитории.*

Ключевые слова: *политический дискурс, метафора, метафора войны, метафора борьбы, концептуальная метафора, когнитивная модель, прагматическая функция, политическая коммуникация.*

Kirish. Metafora inson tafakkurining mavhum hodisalarni konkret tajriba asosida anglash va ifodalash imkonini beruvchi muhim kognitiv mexanizmlaridan biridir. Ayniqsa, siyosiy diskursda metafora murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni auditoriya uchun tushunarli, ta’sirchan va baholovchi shaklda taqdim etishga xizmat qiladi. Siyosiy hokimiyat, raqobat, ijtimoiy muammolar, xavfsizlik va qarama-qarshilik kabi mavhum tushunchalarning urush va kurash tajribasi asosida ifodalanishi siyosiy kommunikatsiyada keng tarqalgan hodisalardan biridir.

Siyosatni urush yoki kurash sifatida konseptuallashtirishda siyosiy subyektlar raqib, siyosiy muammolar esa qarshi turilishi lozim bo‘lgan kuch sifatida tasavvur qilinadi. Bunday metaforik model siyosiy hodisaga muayyan baho berish, qarama-qarshi tomonlarni ajratish va auditoriyani faol pozitsiyani egallashga undash imkonini beradi. Shu sababli urush va kurash metaforalari siyosiy nutqning faqat obrazlilik darajasini oshiruvchi vosita emas, balki siyosiy ma’noning shakllanishida ishtirok etuvchi kognitiv va pragmatik mexanizm sifatida qaralishi lozim.

Adabiyotlar tahlili. Konseptual metafora nazariyasining asosiy tamoyillari G. Lakoff va M. Johnson tomonidan ishlab chiqilgan. Tadqiqotchilar metaforani bir konseptual sohani boshqa tajriba sohasi vositasida anglash imkonini beruvchi mexanizm sifatida talqin qiladilar. Mazkur yondashuvga ko‘ra, metafora faqat tilning obrazli vositasi emas, balki inson tafakkurini tashkil etuvchi konseptual tizimning bir qismidir. Siyosatni urush yoki kurash sifatida anglash ham konkret jismoniy va ijtimoiy tajribaning mavhum siyosiy sohaga ko‘chirilishiga asoslanadi [4,78].

Z. Kövecses konseptual metaforalarning shakllanishida universal insoniy tajriba bilan bir qatorda madaniy omillarning ham muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ayrim metaforik modellar turli xalqlarda umumiy bo‘lishi mumkin, biroq ularning tanlanishi, qo‘llanish darajasi va mazmuniy yuklamasi madaniy muhitga ko‘ra farqlanadi [3, 123]. Shu nuqtayi nazardan urush va kurash metaforalarini ingliz va o‘zbek siyosiy diskursida qiyosiy o‘rganish umumiy kognitiv asoslar bilan milliy-madaniy xususiyatlarning o‘zaro munosabatini aniqlashga imkon beradi.

J. Charteris-Black siyosiy metaforaning persuaziv kuchiga alohida e’tibor qaratadi. Uning tadqiqotlarida metafora siyosiy g‘oyalarni auditoriyaga ta’sirchan yetkazish, siyosiy voqelikni muayyan nuqtayi nazardan talqin qilish va siyosiy pozitsiyani mustahkamlash vositasi sifatida izohlanadi [1, 234]. Urush va kurash metaforalari ushbu jihatdan ayniqsa muhimdir, chunki ular siyosiy masalani “qarshilik” va “g‘alaba” kabi aniq konseptlar orqali ifodalab, auditoriyada faol munosabat shakllantirishi mumkin.

A. Musolff siyosiy metaforalarni alohida so‘z yoki birikma darajasidagina emas, balki muayyan diskursiv ssenariylar tarkibida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi [5, 59]. Urush metaforasi doirasida raqib, himoya, hujum, qarshilik, strategiya va g‘alaba kabi o‘zaro bog‘langan konseptlar shakllanadi. Bunday ssenariy siyosiy hodisaning qanday baholanishi va unga qanday munosabat bildirilishi kerakligini ham belgilashi mumkin.

E. Semino metaforaning diskursdagi ma’nosi kontekst bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi [6, 203]. Bir xil urush yoki kurash leksikasi turli siyosiy vaziyatlarda turlicha pragmatik mazmun kasb etishi mumkin. Shu bois metaforik birliklarni faqat lug‘aviy ma’nosi asosida emas, balki ularning kontekstdagi funksiyasi, baholovchi xususiyati va kommunikativ maqsadi asosida tahlil qilish muhimdir.

P. Chilton siyosiy diskursda qarama-qarshilik, hokimiyat, nazorat va siyosiy subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarning til orqali shakllanishiga e’tibor qaratadi. Uning yondashuvi urush metaforalarida “biz” va “ular” oppozitsiyasining yuzaga kelishi, siyosiy raqibning muayyan obrazda tasvirlanishi va siyosiy harakatning zarurligi qanday asoslanishini o‘rganish uchun nazariy imkoniyat yaratadi [2, 96].

Siyosiy metafora tadqiqotlarida framing konsepsiyasi ham muhim o‘rin tutadi. Metafora orqali siyosiy hodisaning ayrim jihatlari oldinga chiqariladi, boshqalari esa ikkilamchi planga o‘tadi. Masalan, siyosiy muammoni urush sifatida tasvirlashda qarama-qarshilik, xavf, raqib va g‘alaba komponentlari faollashadi. Natijada auditoriya siyosiy vaziyatni oddiy boshqaruv muammosi sifatida emas, balki faol qarshilikni talab qiluvchi holat sifatida qabul qilishi mumkin. O‘zbek siyosiy diskursini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ham urush va kurashga oid metaforalar siyosiy hamda ijtimoiy muammolarni konseptuallashtirishda faol vosita sifatida qayd etiladi. Xususan, kurash metaforasi ijtimoiy muammolarga qarshi faol harakat, muayyan maqsad sari intilish va mavjud to‘siqlarni bartaraf etish mazmunlarini ifodalashi bilan ajralib turadi. Bu holat o‘zbek siyosiy kommunikatsiyasida kurash konseptining nafaqat konflikt, balki faol ijtimoiy mas’uliyat va umumiy maqsad bilan ham bog‘lanishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz va o‘zbek siyosiy diskursida qo‘llangan urush va kurash mazmunidagi metaforik birliklar tanlab olindi. O‘zbek tilidagi materiallar siyosiy nutq va rasmiy chiqishlardan, ingliz tilidagi materiallar esa siyosiy nutqlardan olindi. Tahlilda siyosiy mazmunning urush, kurash, qarshilik, himoya va g‘alaba kabi tajriba sohalari orqali ifodalanishi asosiy mezon sifatida belgilandi. Tadqiqotda konseptual metaforik tahlil, qiyosiy tahlil va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi. Dastlab metaforik birliklar aniqlanib, ularning manba va maqsad sohalari belgilandi. Keyingi bosqichda metaforalarning siyosiy kontekstdagi funksiyasi, baholovchi xususiyati va auditoriyaga ta’sir mexanizmlari tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. Qiyosiy tahlil ingliz va o‘zbek siyosiy diskursida urush va kurash metaforalari siyosiy hamda ijtimoiy muammolarni konkret konflikt tajribasi asosida konseptuallashtirishga xizmat

qilishini ko‘rsatdi. Mazkur metaforik modelda siyosiy muammo qarshi kuch, siyosiy subyekt faol kurashuvchi, maqsad esa g‘alaba yoki muammoni bartaraf etish sifatida tasavvur qilinadi.

O‘zbek siyosiy diskursida kurash *metaforasi, avvalo, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish jarayonida faol qo‘llanadi. “Kambag‘allikka qarshi kurash”, “korrupsiyaga qarshi kurash”, “jinoyatchilikka qarshi kurash”, “odam savdosiga* **qarshi kurash”** kabi birikmalarda mavhum ijtimoiy hodisa inson faoliyatiga qarshi turuvchi kuch sifatida modellashtiriladi. Bu holatda manba sohasi **KURASH**, maqsad sohasi esa **IJTIMOIY MUAMMO** hisoblanadi. Metaforik ko‘chish natijasida muammoni hal qilish passiv boshqaruv jarayoni emas, balki faol qarshilik talab qiladigan harakat sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek siyosiy diskursida *“jaholatga qarshi kurash”, “giyohvandlikka qarshi kurash”, “ekstremizmga qarshi kurash”* kabi birikmalar ham shu modelga mansub. Bunday birliklarda salbiy hodisalar go‘yoki mustaqil kuchga ega raqib sifatida tasavvur qilinadi. Shu orqali muammoning xavflilik darajasi oshirib ko‘rsatiladi va unga qarshi faol choralar ko‘rish zarurligi ta’kidlanadi.

Kurash metaforasi o‘zbek siyosiy nutqida ijobiy qadriyatlar bilan ham bog‘lanadi. *“Adolat uchun kurash”, “haqiqat uchun kurash”, “xalq manfaatlari uchun kurash”* kabi ifodalarda kurash salbiy hodisaga qarshi emas, balki ijobiy maqsadga erishish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda siyosiy subyekt ijtimoiy manfaatlarni himoya qiluvchi va ma’lum qadriyatlarni qaror toptirishga intiluvchi faol kuch sifatida tasvirlanadi.

Shuningdek, o‘zbek siyosiy diskursida *“tahdidlarga qarshi turish”, “xavf-xatarlarga qarshi birgalikda harakat qilish”, “muammolarni yengib o‘tish”* kabi ifodalar ham kurash semantik maydoniga yaqin turadi. Ular orqali siyosiy vaziyatning murakkabligi va unga nisbatan faol munosabat zarurligi ta’kidlanadi. Ayniqsa, “birgalikda” komponenti kurashni individual emas, balki jamoaviy faoliyat sifatida ko‘rsatib, auditoriyani umumiy maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi.

Ingliz siyosiy diskursida ham *fight poverty, combat crime, tackle inequality, fight for justice, confront threats* kabi birliklar keng uchraydi. *Fight poverty* va *combat crime* kabi konstruksiyalarda ijtimoiy muammo kurashilishi kerak bo‘lgan raqib sifatida tasavvur qilinadi. *Fight for justice* esa ijobiy qadriyatga erishish jarayonini kurash sifatida modellashtiradi.

Ingliz va o‘zbek materiallarining qiyosiy tahlili **MUAMMO – RAQIB** modelining ikki diskurs uchun umumiy ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida kambag‘allik, korrupsiya, jinoyatchilik, jaholat kabi tushunchalar “qarshi kurashiladigan” hodisa sifatida tasvirlansa, ingliz tilida *poverty, crime, inequality, injustice* kabi tushunchalar *fight, combat, tackle* fe’llari bilan bog‘lanadi. Demak, har ikki tilda mavhum muammo konkret qarama-qarshilik obyekti sifatida konseptuallashtiriladi.

Urush metaforasining yana bir muhim modeli **SIYOSIY FAOLIYAT – HIMOYA** tarzida namoyon bo‘ladi. O‘zbek siyosiy diskursida *“milliy manfaatlarni himoya qilish”, “tinchlikni asrash”, “xalq xavfsizligini himoya qilish”, “davlat manfaatlarini himoya qilish”* kabi ifodalar siyosiy va ijtimoiy qadriyatlarni tashqi yoki ichki tahdidlardan himoya qilinishi lozim bo‘lgan obyekt sifatida ko‘rsatadi. Bu modelda siyosiy subyekt “himoyachi”, tahdid esa qarshi kuch sifatida konseptuallashtiriladi. Masalan, *“milliy manfaatlarni himoya qilish”* birikmasida milliy manfaatlar muayyan tashqi ta’sirdan himoyalanishi lozim bo‘lgan qadriyat sifatida tasavvur qilinadi. Natijada siyosiy subyektning faol pozitsiyasi legitimlashtiriladi.

Ingliz siyosiy diskursida *defend democracy, protect national interests, defend freedom, protect our communities* kabi birliklar shu konseptual modelni namoyon etadi. *Defend democracy* konstruksiyasida demokratiya himoya qilinishi lozim bo‘lgan qadriyat sifatida, siyosiy subyekt esa uning himoyachisi sifatida ko‘rsatiladi. Bu esa siyosiy qarorning zarurligini auditoriyaga tabiiy va asosli ko‘rsatishga yordam beradi.

Urush metaforalarida **RAQIB – DUSHMAN** modeli ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbek siyosiy diskursida *“dushman g‘oyalar”, “yovuz kuchlar”, “tahdid soluvchi kuchlar”, “qarshi kuchlar”* kabi ifodalar siyosiy yoki ijtimoiy xavfni shaxslashtirishga xizmat qiladi. Mavhum hodisaning “kuch” yoki “dushman” sifatida tasvirlanishi uning xavflilik darajasini oshirib ko‘rsatadi.

Ingliz siyosiy diskursida *enemy, hostile forces, adversaries, threats* kabi birliklar siyosiy raqib yoki xavfni qarama-qarshi kuch sifatida ifodalashga yordam beradi. Bunday birliklar ayniqsa xavfsizlik, xalqaro munosabatlar va siyosiy raqobat kontekstida faol ishlatiladi. “Biz” va “ular” oppozitsiyasining yuzaga kelishi auditoriyada guruhiy identifikatsiyani kuchaytirishi mumkin.

Shu jihatdan o‘zbek va ingliz siyosiy diskurslarida **BIZ – ULAR** qarama-qarshiligi urush metaforasi orqali konseptual jihatdan kuchaytiriladi. Biroq uning ifodalanish darajasi va kommunikativ maqsadi siyosiy vaziyatga bog‘liq. O‘zbek siyosiy nutqida qarama-qarshilik ko‘pincha ijtimoiy xavf va salbiy hodisalarga qarshi umumiy harakat shaklida berilsa, ingliz siyosiy diskursida siyosiy raqobat va tashqi tahdidlarni belgilashda ham faol qo‘llanishi mumkin.

Urush va kurash metaforalarining muhim komponentlaridan biri **G‘ALABA – MUVAFFAQIYAT** modelidir. O‘zbek siyosiy diskursida *“sinovlarni yengib o‘tish”, “to‘siqlarni bartaraf etish”, “g‘alaba qozonish”, “muammolarni yengish”* kabi birliklar maqsadga erishishni qarshilik ustidan ustun kelish sifatida ifodalaydi. Bunda siyosiy natija oddiy muvaffaqiyat emas, balki muayyan qarshilikni yengish natijasi sifatida konseptuallashtiriladi.

Ingliz siyosiy diskursida *overcome challenges*, *win the fight*, *achieve victory*, *defeat a threat* kabi birliklar shunga yaqin konseptual asosga ega. Ular siyosiy subyektni qat’iyatli va faol kuch sifatida namoyon etib, siyosiy faoliyatning natijadorligini ta’kidlaydi.

O‘zbek tilidagi kurash metaforalarining o‘ziga xos jihatlaridan biri ularning **jamoaviylik** mazmuni bilan bog‘lanishidir. **“***Birgalikda kurashish”, “hamjihatlikda harakat qilish”, “xalq bilan birga”, “umumiy sa’y-harakatlar”* kabi mazmunlar kurash jarayonini umumiy manfaat va jamoaviy mas’uliyat bilan bog‘laydi. Bu holatda siyosiy subyekt va auditoriya o‘rtasidagi masofa qisqaradi, chunki ular bir xil maqsad uchun harakat qilayotgan yagona guruh sifatida tasavvur qilinadi.

Ingliz siyosiy diskursida *we must fight*, *we stand together*, *we must confront the challenge* kabi birliklar ham kollektiv harakatni ifodalaydi. Biroq ularda siyosiy subyektning qat’iy pozitsiyasi va harakatga chaqiruv komponenti nisbatan kuchli namoyon bo‘lishi mumkin. Demak, har ikki tilda jamoaviylik mavjud bo‘lsa-da, uning pragmatik yo‘nalishi siyosiy kommunikativ vaziyatga qarab farqlanadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, urush va kurash metaforalari siyosiy diskursda bir nechta muhim pragmatik vazifalarni bajaradi. Birinchidan, ular **baholash funksiyasi**ni bajaradi. Muammoni “dushman”, “tahdid” yoki “qarshi kuch” sifatida tasvirlash uning salbiy xususiyatlarini kuchaytiradi. Ikkinchidan, ular **persuaziv funksiyaga** ega bo‘lib, auditoriyani siyosiy kommunikator taklif qilayotgan pozitsiyani qabul qilishga undaydi. Uchinchidan, urush metaforalari **legitimlashtiruvchi funksiya**ni bajaradi. Muayyan hodisa tahdid sifatida ko‘rsatilganda unga qarshi keskin yoki faol choralar ko‘rish zaruriyati tabiiylashtiriladi. To‘rtinchidan, kurash metaforalari **safarbar etuvchi funksiya**ga ega bo‘lib, auditoriyani umumiy maqsad atrofida birlashtirish va faol harakatga undash imkonini beradi.

Qiyosiy natijalar shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek siyosiy diskurslarida urush va kurash metaforalarining bazaviy kognitiv asoslari sezilarli darajada umumiydir. Har ikki tilda muammo raqib, siyosiy faoliyat kurash, qadriyatlar himoya qilinadigan obyekt, siyosiy muvaffaqiyat esa g‘alaba sifatida konseptuallashtirilishi mumkin. Farqlar esa, asosan, ushbu modellar qaysi siyosiy mavzular bilan bog‘lanishi va qanday kommunikativ maqsadda qo‘llanishida namoyon bo‘ladi. O‘zbek siyosiy diskursida kurash metaforalari ko‘proq ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, xalq manfaatlarini himoya qilish, xavfsizlik va jamoaviy harakat mazmunida namoyon bo‘lsa, ingliz siyosiy diskursida tadqiq etilgan materiallar doirasida ular siyosiy raqobat, xavf, tahdid va faol qarshilikni ifodalashda faolroq ko‘rinadi. Biroq mazkur farqlarni ikki tilning mutlaq lingvomadaniy belgisi sifatida emas, balki tanlangan siyosiy nutqlarda kuzatilgan tendensiya sifatida baholash lozim.

Xulosa. Tadqiqot natijalari ingliz va o‘zbek siyosiy diskursida urush va kurash metaforalari siyosiy hamda ijtimoiy voqelikni konseptuallashtirishning faol vositalaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Mazkur metaforalar orqali muammo raqib, siyosiy faoliyat kurash, qadriyatlar himoya qilinadigan obyekt, natija esa g‘alaba sifatida modellashtiriladi. O‘zbek siyosiy diskursida kurash metaforalari asosan ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, xalq manfaatlarini himoya qilish, xavf va tahdidlarga qarshi turish hamda jamoaviy harakatni ifodalash bilan bog‘liq. Ingliz siyosiy diskursida esa ular tadqiq etilgan materiallar doirasida siyosiy raqobat, xavfsizlik, tahdid va faol qarshilikni ifodalashda faolroq namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Charteris-Black, J. Politicians and Rhetoric: The Persuasive Power of Metaphor / J. Charteris-Black. – 2nd ed. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2011. – 370 p.

2. Chilton, P. Analysing Political Discourse: Theory and Practice / P. Chilton. – London: Routledge, 2004. – 240 p.

3. Kövecses, Z. Metaphor in Culture: Universality and Variation / Z. Kövecses. – Cambridge: Cambridge University Press, 2005. – 334 p.

4. Lakoff, G. Metaphors We Live By / G. Lakoff, M. Johnson. – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – 276 p.

5. Musolff, A. Metaphor and Political Discourse: Analogical Reasoning in Debates about Europe / A. Musolff. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2004. – 211 p.

6. Semino, E. Metaphor in Discourse / E. Semino. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 247 p.